
Fazildinova Sevara Nematovna, CAMU xalqaro tibbiyot universiteti
Tillar kafedrası o'qituvchisi +998915410377
sevarafazildinova6@gmail.com ORCID 0000-0002-7577-3388



**ALISHER NAVOIY “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA QO‘LLANGAN
O‘XSHATISHLARNING STRUKTUR-KOMPOZITSION XUSUSIYATLARI**

<https://zenodo.org/records/18765919>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida qo‘llangan o‘xshatishlarning struktur-kompozitsion xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘xshatishlarning shakliy tuzilishi, ularning badiiy matndagi funksional vazifasi hamda qahramon xarakterini ochishdagi roli yoritiladi. Ayniqsa, dostonida va uning tarjimasida uchraydigan **uch komponentli (o‘xshatiluvchi + o‘xshatish vositasi + o‘xshatilgan obyekt)** va **to‘rt komponentli (o‘xshatiluvchi + belgi/asos + o‘xshatish vositasi + o‘xshatilgan obyekt)** o‘xshatishlarning tuzilishi alohida tahlil qilinadi. Ushbu strukturalar matnning kompozitsion uyg‘unligini ta‘minlash, obrazlar tizimini boyitish va voqealar dinamikasini kuchaytirishdagi ahamiyati bilan izohlanadi. Natijada Navoiy o‘xshatishlaridan foydalanishning o‘ziga xos uslubi, ularning semantik qatlamlari va estetik yuklamalari ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘xshatishlar, struktur-kompozitsion xususiyatlar, komponent, tashbih, badiiy tasvir vositalari, o‘xshatish asosi, o‘xshatish vositalari

**“STRUCTURAL AND COMPOSITIONAL FEATURES OF SIMILES USED IN
ALISHER NAVOI’S EPIC *FARHOD AND SHIRIN*”**

Abstract: This article analyzes the structural and compositional features of similes used in Alisher Navoi’s epic *Farhod and Shirin*. The study examines the formal structure of these similes, their functional role within the literary text, and their contribution to revealing the characters’ traits. Special attention is given to the structure of the three-component similes (tenor + comparative marker + vehicle) and the four-component similes (tenor + descriptive basis/feature + comparative marker + vehicle) found both in the epic and in its translation. These structural types are explained in terms of their significance in ensuring compositional harmony, enriching the system of imagery, and intensifying the dynamics of the narrative. As a result, the study reveals Navoi’s distinctive style in employing similes, along with their semantic layers and aesthetic functions.

Keywords: similes, structural and compositional features, component, *tashbih* (classical simile), figurative devices, basis of comparison, markers of comparison

**СТРУКТУРНО-КОМПОЗИЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ СРАВНЕНИЙ,
ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В ПОЭМЕ АЛИШЕРА НАВОИ «ФАРХАД И ШИРИН»**

Аннотация. В данной статье анализируются структурно-композиционные особенности сравнений, применённых Алишером Навои в поэме «Фархад и Ширин». В исследовании рассматривается формальное строение сравнений, их функциональная роль в художественном тексте, а также вклад в раскрытие характеров героев. Особое внимание уделяется структуре трёхкомпонентных сравнений (tenor — сравниваемый объект, comparative marker — показатель сравнения, vehicle — объект сравнения) и четырёхкомпонентных сравнений (tenor — сравниваемый объект, descriptive basis/feature — признак или основание сравнения, comparative marker — показатель сравнения, vehicle — объект сравнения), встречающихся как в поэме, так и в её переводе. Значимость данных структур объясняется их ролью в обеспечении композиционной гармонии текста, обогащении системы образов и усилении динамики повествования. В результате выявляется индивидуальный стиль Навои в использовании сравнений, их семантические уровни и эстетическая нагрузка.

Ключевые слова: сравнения, структурно-композиционные особенности, компонент, ташбих (классическое сравнение), художественно-выразительные средства, основа сравнения, средства сравнения

Kirish.

Badiiy adabiyotda o'xshatishlar juda keng qo'llanadi, chunki ular orqali yozuvchi o'quvchiga tasvirlayotgan hodisa yoki predmetni yanada aniqroq va jonli tushuntiradi. O'xshatish vositasidan foydalanish orqali o'quvchi nafaqat predmetni, balki uning holati, harakati va boshqalar bilan bog'liq xususiyatlarini ham yaxshiroq tushunadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Turkiy, chunonchi, o'zbek adabiyotshunosligida tashbih badiiy san'atini voqelantiruvchi o'xshatishlarning ilmiy-nazariy tavsifi, mohiyat-mazmuni, badiiy san'atlar tizimidagi roli, muayyan ijodkorning tashbihdan foydalanishdagi mahorati kabi masalalarni Atoullloh Huayniy, Shayx Ahmad Taroziy, A.Fitrat, Y.Is'hoqov. B.Sarimsoqov, A.Hojiahmedov, T.Boboyev, Z.Mamajonov va boshqalar tahlil etgan. Shuningdek, o'xshatishning struktur-kompozitsion va semantik jihatdan boshqa yondosh hodisalardan farqlari hamda o'xshashligi kabi masalalar M.Cheremisina, L.Mildred, M.Mukarramov, M.Mirtojiev hamda N.Mahmudov, D.Xudoyberganovalar tomonidan tadqiq qilingan.

Natija va muhokama.

Ko'plab manbalarda ko'rsatilishicha, o'xshatishlar, Panini grammatikasidan boshlab qadimgi hind traktatlarida poetik figura sifatida o'rganilgan va muntazam to'rt unsurdan iborat ekanligi ta'kidlangan, ya'ni: 1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt, 2) unga o'xshash bo'lgan narsa yoki obyekt, 3) o'xshatish belgisi yoki o'xshatish asosi va 4) o'xshatishning formal ko'rsatkichlari.

N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalarining "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" muqaddimasida o'xshatishlar haqida ma'lumotlar berilib, ularni asosan to'rt komponentli ekanligini ta'kidlaydilar [6].

Rus tilshunosi M.Chermisina tasnificha, ular quyidagilardan tashkil topgan:

1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatish shakli [11].

Mumtoz adabiyotda ham o'xshatish (tashbih) komponentlarining to'rt qismdan tarkib topishi va tashbeh to'rt juzvli bo'lsa, "tashbihi mufassal" deyilishi aytib o'tilgan [12]. Yuqoridagi keltirilgan komponentlarni mumtoz adabiyotda qo'llanuvchi istilohlar bilan muqoyasa qilishimiz mumkin:

- 1) mushabbih(o'xshatilgan narsa) – o'xshatish subyekti;
- 2) mushabbihunbih (o'xshayotgan narsa) – o'xshatish etaloni;
- 3) odati tashbih(o'xshatish vositalari) – o'xshatish shakli;
- 4) vajhi tashbih (o'xshatish sababi) – o'xshatish asosi.

Bu yondashuv o'xshatishning barcha tarkibiy qismlarini tizimli o'rganish imkonini yaratadi va adabiy tahlil jarayonini osonlashtirishga, ushbu ta'riflar esa mumtoz adabiyotdagi badiiy tasvir vositalarining murakkabligi va ulardagi semantik qatlamlarni ochib berishga xizmat qiladi. Tashbihi mufassal haqida fikr yuritganda, uning komponentlarining to'liq ifodalanishi poetik tasvirni yanada mazmunli qilishi va u orqali o'quvchi poetik ma'noni to'liq anglash imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, bu yondashuv mumtoz shoirlarning badiiy dunyoqarashini, ularga xos bo'lgan tafakkur tarzini va poetik tilning imkoniyatlarini kengroq anglash uchun juda foydali.

Asliyat matni: “*Uning oliy qasri osmon misoli, balki undan ham yuksak edi*” (“Farhod va Shirin”, 19-b.). Keltirilgan jumlada, *osmon misoli* birikmasi – o'xshatish tasvir vositasi sifatida kelganligini ko'ramiz. Ushbu misolning yuqorida bayon qilingan o'xshatishning to'rt tarkibiy qismi orqali tahlilini ko'rsak:

1. Mushabbih (o'xshatilgan narsa): “*Uning oliy qasri*” – bu tasvirlanayotgan narsa, ya'ni qasr.
2. Mushabbihun bihi (o'xshatish etaloni): “*osmon*” – bu qasr qiyoslangan narsa. Bu yerda osmon yuksaklik, ulug'vorlik va cheksizlikning timsoli sifatida qo'llangan.
3. Odati tashbih (o'xshatish vositalari): “*misoli*” va “*balki undan ham*” — bu o'xshatish vositalari bo'lib, ular mushabbih bilan mushabbihun bihi o'rtasidagi o'xshashlikni ochib beradi. Ayniqsa, “*balki undan ham*” qo'shimchasi qasrning osmondan ham yuksak ekanligini ta'kidlab, poetik kuchni oshiradi.
4. Vajhi tashbih (o'xshatish sababi): “*yuksaklik*” – bu mushabbih (qasr) va mushabbihun bihi (osmon) o'rtasidagi umumiy xususiyat bo'lib, u o'xshatishning asosini tashkil qiladi. Shoir bu bilan qasrning fizik balandligidan ko'ra, uning ulug'vorligi, sharafliligi va ko'tarinki mavqeini ta'kidlagan bo'lishi mumkin.

Mazkur misolda o'xshatishning barcha komponentlari ochiq va ravshan tarzda ifodalangan, shu sababli buni tashbihi mufassal deb baholash mumkin. Shoir qasrning balandligini osmon bilan solishtirib, lekin undan ham yuksak ekanligini qayd etish orqali tasvirni yanada kuchaytirganligini ko'ramiz. Bu esa o'quvchiga nafaqat qasrni tasavvur qilish, balki uning ulug'vorligini his qilish imkoniyatini ham beradi.

Tarjima matni: “*His heavenly castle stood supreme and higher than the sky above us.*” (“Farhod and Shirin”, p.9). (Uning samoviy qal'asi bizning tepamizda osmondan oliy va baland edi (so'zma-so'z tarjimasini))

Mazkur tarjima mazmunni to'g'ri shaklda ifoda qilgan bo'lsa-da, bir nechta jihatlar diqqatga sazovor:

Tarjimada asl matndagi “*uning oliy qasri*” iborasi “*his heavenly castle*” shaklida ifodalangan. Bu o'z o'rnida asliyatga mos keladi, chunki “*heavenly*” (osmoniy) so'zi qasrning ulug'vorligini va yuksakligini o'xshatish asosida to'g'ri aks ettiradi.

“*Supreme and higher than the sky above us*” ifodasi ham “*undan ham yuksak edi*” asliyat mazmunini aniq aytaradi. Ayniqsa, *supreme* so'zi faqat jismoniy balandlikni emas, balki mavqening yuksakligini ham anglatadi.

Asliyat matndagi “*osmon misoli*” birikmasi tarjimada bevosita aks ettirilmagan. Ingliz tilidagi “*stood supreme and higher*” iborasi bu ma'noni o'zida bilvosita ifoda qilgan bo'lsa-da, jumlagi “*like the sky*” tarzidagi to'g'ridan-to'g'ri o'xshatish ham qo'shilishi mumkin edi.

Tarjima matni tushunarli va she'riy ritmga ega, ammo asl nusxadagi “*osmon misoli*”dagi tashbihning aniq ko‘rinishi biroz zaiflashganligi kuzatiladi.

Tarjimada asliyatdagi ifodaning badiiy jihati saqlanib qolgan. “*His heavenly castle stood supreme and higher than the sky above us*” jumlasida balandparvoz va ulug‘vorlikni tasvirlash uchun mos keladi. Ammo badiiy matnda birgina “*sky-like*” so‘zining qo‘llanishi o‘xshatishni yanada aniqroq tasvirlashga yordam bergan bo‘lar edi. Tarjima sifat jihatidan muvaffaqiyatli va unda badiiy mazmun saqlanib qolgan. Biroq “*osmon misoli*” kabi o‘xshatishning aniqroq aks ettirilishi yanada boyroq badiiy uyg‘unlik yaratgan bo‘lar edi. Shu bilan birga, tarjimada *heavenly* va *supreme* so‘zlari orqali qasrning ilohiy va ulug‘vor jihatlari aniq ifodalangan.

O‘zbek tilshunosligida M.Mukarramov rus tilshunoslari B.Tomashevskiy, A.Yefimov, M.Shapiro nazariyalariga asoslanib, o‘xshatish strukturasi kompozitsion yaxlitligini ta’minlash uchun uning tarkibida uch asosiy komponent mavjud bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. Olimning fikriga ko‘ra, har bir o‘xshatishda: 1) o‘xshatiluvchi obyekt (tasvirlanayotgan narsa); 2) o‘xshayotgan narsa (unga o‘xshovchi obraz); 3) o‘xshatilayotgan va o‘xshayotgan narsa, hodisalarning belgisi (ularni bog‘lovchi semantik element) qatnashishi shart [7]. Olimning fikricha, o‘xshatishlarni ifodalashda o‘xshatiluvchi obyekt va o‘xshayotgan narsaning mavjudligi asosiy shartlardan hisoblanadi.

Tilshunos olimlar o‘xshatish uslubini tasniflash uchun turli mezonlardan foydalanganlar. Eng asosiy farqlardan biri – obyektiv va subyektiv o‘xshatishlardir. Obyektiv o‘xshatishlar tashqi o‘xshashlik, shaklga asoslangan bo‘lsa, subyektiv o‘xshatishlar majoziy o‘xshatishga asoslanadi. Boshqacha aytganda, “haqiqatan ham shunday ko‘rish” va “shunday deb o‘ylash” farqlanadi.

Ingliz tilida o‘xshatishlar ba’zi adabiyotlarda uch boshqa adabiyotlarda esa to‘rt komponentlik deb tavsiflanadi. Tilshunos va tarjimashunos olim P.Patritsiya ularni uch komponentdan tashkil topishini qayd etadi. Uch komponentlik o‘xshatishlar *topic* yoki *comparandum*-o‘xshatish subyekt, *vehicle* yoki *comparatum* o‘xshatish etaloni hamda *comparison markers* o‘xshatish markerlari ya’ni vositalari, shakllari ekanligini ko‘rishimiz mumkin [10].

L.Mildred esa ularni tasniflashda to‘rt komponentli ekanligini ta’kidlaydi. Ular *topic or tenor*-o‘xshatish sub’yekti, *vehicle* o‘xshatish ob’yekti, *event or state* – o‘xshatish sababi yoki asosi, *comparator*-o‘xshatish ko‘rsatkichlari. Masalan, *The soldier was as brave as a lion* (*Askar arslonday jasur edi*) jumlasida *The soldier*- o‘xshatish subyekt, *lion*- o‘xshatish obyekti, *as brave*- o‘xshatish sababi yoki asosi, *as*-o‘xshatish ko‘rsatkichidir.

Xulosa.

Mazkur ikki yondashuv bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro to‘ldiradi. M.Mukarramov va P.Patritsiya modeli o‘xshatishning mazmuniy asosini ochib bersa, Y.Is’hoqov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, M.Cheremisina, L.Mildredlar tasnifi uning strukturaviy va formal jihatlari yanada mukammal yoritadi. Shuning uchun o‘xshatishni kompleks tadqiq etishda ushbu ikki xil qarashlarini integratsiyalashgan holda qo‘llash ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” nasriy bayon muallifi G‘ofur G‘ulom. T.: “Adabiyot va san’at”, 1975, –245 b.
2. Alisher Navoiy “Farhod and Shirin” translated by Azam Abidov, Tbilisi-Tashkent, 2018, – 374 p.

3. Fazildinova, S. (2025). THE USE OF SIMILE, METAPHOR AND HYPERBOLE IN ALISHER NAVOI'S WORKS. В ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE (Т. 4, Выпуск 28, сс. 173–178). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15526221>
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т., 2002. 372-б.
5. Махмудов Н., Худойбергана Д. Ўзбек тилининг ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б.5.
6. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан нашриёти, 1976. – Б.6.
7. Mildred L. Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalent. – America: University Press of America, 1984. – P.196.
8. Nematovna F. S. METAPHOR IN LITERARY TRANSLATION //ТА’ЛИМ, ТАРБИYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 50-57.
9. Nematovna , F. S. (2025). Linguoculturological Aspects of the Prose Exposition of Epic “Farhad and Shirin” and its English Translation. *Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 3(4), 19-24. <https://doi.org/10.5281/>
10. Patrizia P. Simile in English: From description to translation – Madrid, 2007. – P.23.
11. Черемисина М. Сравнительные конструкции русского языка. Новосибирск, 1976. –С.17-18.
12. Ё.Исҳоқов, Ташбеҳ “Ўзбек тили ва адабиёти” журн. 1970. № 4